



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI
ISTIQBOLLARI”**
mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

materiallari

(2022-yil 26-oktabr)



Toshkent – 2022

O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 26.10.2022. – 349 b.

Mazkur to‘plamdan amaliy filologiya sohasiga doir tadqiqot natijalari, O‘zbekistonda til siyosati va menejmentiga oid masalalar, zamonaviy leksikografiya va milliy terminologiya muammolari, kompyuter va korpus lingvistikasining nazariy-amaliy masalalari tadqiqi, lingvistik ekspertiza manbalari, terminologik lug‘atlarni yaratishga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan amaliy filologiya sohasi mutaxassislari, tadqiqotchilar, magistrantlar va sohaga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.R.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

S.X.Muhamedova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

I.X.Islomov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI
ISTIQBOLLARI**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari

(2022-yil 26-oktabr)

Toshkent – 2022

TASHKILIY QO'MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi)

Hamroyev G'ofir Hasanovich (O'zR Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti)

Karimov Suyun Amirovich, (Samarqand davlat universiteti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo'raqoziev Nodir Imomqoziyevich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY'ATI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Islomov Ikrom Xushboqovich

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna

Murtazayev Abror Odilovich

Musulmonova Kamola Husniddin qizi

Elova Dilrabo Qudratillayevna

Sobirova E'zoza Shuxrat qizi

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

-GAN/-KAN/-QAN ZAMON SHAKLINI KORPUSDA

ANNOTATSIYALASH

Elyor Xonnazarov G‘ofurovich

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

xonnazarov90@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada -gan/-kan/-qan zamon shaklining o‘zbek tilining ta’limiy korpusi matnlarida qo‘llanilish holatlari tahlil qilingan va uning annotatsiyasi yuzasidan ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘tgan zamon, grammatik shakl, allomorf, annotatsiya, o‘tgan zamon sifatdoshi, analizator

Abstract. This article analyzes the cases of application of the tense form -gan/-kan/-qan in the texts of the educational corps of the Uzbek language and provides information on its annotation.

Key words: the past tense, grammatical form, allomorph, annotation, past participle, analyzer

O‘tgan zamonning -gan (-kan, -qan) qo‘shimchasini annotatsiyalash jarayonida uning turli kontekstlarda anglatadigan xilma-xil ma’nolarini aniqlash, bu xususiy ma’nolardan shaklning umumiy ma’nosini tiklash muhim ahamiyatga ega. Ushbu shaklning o‘tgan zamonning ichki tasnifida qaysi guruh tarkibiga kirishi borasida o‘zbek tilshunosligida xilma-xil fikrlar bildirilgan. Xususan, Abdurauf Fitrat -gan (-g‘an) shaklidagi fe’lni eshutilgan fe’l deb nomlaydi [Fitrat, 2019: 154]. -gan (-g‘an) shaklining bunday atalishi uning ko‘rilgan harakat-hoatlarni ham ifodalashidan kelib chiqilsa, shakl mohiyatiga mos kelmaydi. Ehtimol, A.Fitrat -gan shaklining ayrim qo‘llanishlarini turk tilidagi -miş shakliga tenglashtirgan holatda shunday xulosa qilgan bo‘lishi mumkin. O‘tgan zamon shakllarini monografik planda o‘rgangan A. Sulaymonov -gan (-kan, -qan) shaklini uzoq o‘tgan zamon fe’li [Сулаймонов, 1962: 12] hosil qilishini aytadi. A.Sulaymonovning fikri ham bahsli bo‘lib, -gan (-kan, -qan) shakllari yaqin o‘tgan zamondagi harakat-hoatlarni ham ifodalay oladi. Tilshunos A.G‘ulomov mazkur shaklni tarixiy o‘tgan zamon fe’li hosil qilishini aytadi [Фуломов, 1954: 25]. A.Hojiyev esa umuman zamon shakllarining yuqoridagi singari maxsus nomlar bilan atalishiga qarshi chiqadi. Uning fikricha, o‘tgan zamon fe’l turlarining har biri uchun, ularning bir-biridan farqli xususiyatini aniq ifodalay oladigan maxsus nomlar topish mumkin emas [Хожиев, 1973: 133]. Olim fikrini bu shakllarning birdan ortiq ma’noga ega ekanligi, ularni bir xususiyati bilan nomlash esa shakl haqiqiy tabiatiga mos kelmasligi bilan asoslaydi. Keyinchalik N.Musulmonova zamon va mayl shakllaridagi kategorial, yondosh va hamroh ma’noni o‘rganish natijasida ham yuqoridagi tasniflarda keltirilgan aniqlik, tarixiylik, eshutilganlik kabi ma’nolar zamon kategoriyasiga tegishli emasligini, balki “o‘tgan zamon”

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

ma’nosining o‘zi bu shakllar uchun kategorial ma’no ekanligini qayd etadi [Мусулмонова, 2007: 80].

O‘zbek kompyuter lingvistikasida fe’l shakllarni modellashtirish doirasida A.Po‘latov, S.Muhamedova, M.Abjalova, Sh.Hamroyeva, O‘.Xoliyorov kabi olimlarning ishlarida o‘tgan zamon sintetik shakllariga ham to‘xtaligan bo‘lsa-da, biroq mazkur shaklning turli nutqiy qurshovda anglatadigan ma’nolarini aniqlash yuzasidan o‘rganishlar olib borilmagan.

Kompyuter tomonidan -gan/-kan/-qan shaklining korpus matnlarida har xil vazifa va ma’nolarda qo‘llanilish holatlari farqlanmaydi. Dastur tomonidan bu holatlarning farqlanishi uchun esa mazkur shakllar yuzasidan tizimlashtirilgan lingvistik ta’minot talab etiladi. Biz bu shakllarning turli qo‘llanishlariga oid modellar ishlab chiqish orqali muammoni bartaraf etish mumkin, deb hisoblaymiz.

Annotatsiyalashda shakl haqidagi ma’lumot qisqartirilgan shartli belgilarda ifodalanadi. O‘zbek korpus lingvistikasidagi tadqiqotlarda o‘tgan zamon ma’nosi uchun “Z1” belgisidan foydalanib kelinadi. O‘tgan zamon tizimiga kiruvchi har bir shakl va uning allomorflari, shuningdek, variantlari ham alohida-alohida shartli belgisiga ega bo‘lishi lozim. -gan/-kan/-qan shaklining o‘tgan zamon tizimidagi raqami 3 va shakl umumiy holatda “Z1(3)” tarzida ifodalanadi. Allomorflarning har birini -gan 1, -kan 2, -qan 3 ko‘rinishida raqamlab olamiz, raqamlarning allomorflarga tegishli ekanligini bildirish uchun “al” qisqartmasidan foydalanamiz. Natijada -gan shakli “Z1(3,al1)”, -kan shakli “Z1(3,al2)”, -qan shakli “Z1(3,al3)” tarzida belgilanadi.

-gan/-kan/-qan shakli orqali o‘tgan zamonda yuz bergan harakat-holat subyektning belgisi, tavsifi sifatida beriladi. Harakat-holatning natijasi hozirgi zamonda ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Korpuslar muayyan shaklning tilda qancha miqdorda va qanday holatlarda ishlatilishini aniqlashda juda zaruriy manba hisoblanadi. Biz mazkur shakl va uning allomorflarining qo‘llanilishini tahlil qilishda “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” (uzschoolcorpara.uz) matnlaridan foydalandik. Allomorflar ichidan asoslarga birikish imkoniyati kengligi bois -gan eng faol bo‘lib, ta’limiy korpus matnlarida 2393328 marta ishlatilgan. Asoslarga birkish imkoniyati cheklanganligi bois, ya’ni -kan faqat k tovushi bilan tugagan asoslarga, -qan faqat q tovushi bilan tugagan asoslarga qo‘shila olgani bois -kan va -qan shakllarining ta’limiy korpus matnlarida uchrash chastotasi nisbatan kamroq: -qan 52889 marta, -kan 3336 marta uchraydi. -qan shaklining -kan qo‘shimchasiga nisbatan ko‘p qo‘llanilishining sababi o‘zbek tilida -q tovushi bilan tugovchi fe’llar sonining k tovushi bilan tugovchi fe’llar soniga qaraganda ko‘proq ekanligi bilan ham bog‘liq. Besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi fe’llarni tekshirganimizda mavjud 3949 ta fe’ldan 22 ta fe’l -kan zamon shakli bilan birika olish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Fe’llar ro‘yxati va ularning -kan shakli bilan ta’limiy korpus matnlarida uchrash chastotasi 1-jadvalda aks etgan.

-kan zamon shakli bilan birikuvchi fe’llar ro‘yxati

T/r	Fe'l lemma	Zamon shakli	Token	Ta'limiy korpus matnlarida uchrash chastotasi
1	chek	-kan	chekkan	1758
2	ek		ekkan	420
3	tik		tikkan	308
4	cho'k		cho'kkan	295
5	zerik		zerikkan	155
6	to'k		to'kkan	140
7	birik		birikkan	120
8	so'k		so'kkan	106
9	buk		bukkan	15
10	bo'k		bo'kkan	8
11	ichik		ichikkan	5
12	junjik		junjikkan	3
13	entik		entikkan	2
14	kuyik		kuyikkan	1
15	elik		elikkan	0
16	hurk		hurkkan	0
17	jerk		jerkkan	0
18	kerk		kerkkan	0
19	ko'zik		ko'zikkan	0
20	uzik		uzikkan	0
21	uzluk		uzlukkan	0
22	yelik		yelikkan	0

Ta'limiy korpus matnlarida -kan bilan birikishda *chekmoq* fe'li boshqalariga qaraganda keskin ustunlikka ega bo'lib, 1758 o'rinda ishlatilgan. Grammatik shakl bilan birikishda farqli xususiyatlarga ega bo'lmagani bois fe'l shakldoshlari bilan umumiy hisoblandi. Chekmoqning fe'l turkumi doirasida uchta shakldoshiga ega ekanligi uning boshqa fe'llarga nisbatan ko'proq qo'llanilishini ta'minlagan. Bu -kan shaklining korpusda uchrash chastotasining 53 foizini tashkil qiladi. *Kerkmoq*, *uzikmoq*, *uzlukmoq*, *elikmoq*, *elikmoq* kabi fe'llar nafaol qatlamga mansubligi sababli korpus matnlarida -kan shakli bilan umuman qo'llanilmagan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da keltirilgan fe'llardan 47 tasi -qan zamon shakli bilan birika oladi. Bunday fe'llar ro'yxati va ularning -qan shakli bilan ta'limiy korpus matnlarida qo'llanilish chastotasi 2-jadvalda berilgan.

-qan zamon shakli bilan birikuvchi fe'llar ro'yxati

O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

2-jadval

T/r	Fe'l lemma	Zamon shakli	Token	Ta'limiy korpus matnlarida uchrash chastotasi
1	Chiq	-qan	chiqqan	47384
2	Yoq		yoqqan	1008
3	Qiziq		qiziqqan	995
4	Taq		taqqan	852
5	qo'rq		qo'rqqan	580
6	Yuq		yuqqan	397
7	yo'liq		yo'liqqan	350
8	Boq		boqqan	280
9	Oq		oqqan	252
10	Toliq		toliqqan	172
11	Chaq		chaqqan	157
12	Oshiq		oshiqqan	101
13	Qoniq		qoniqqan	57
14	Chiniq		chiniqqan	54
15	Tiq		tiqqan	47
16	Uq		uqqan	45
17	Qoq		qoqqan	40
18	zo'riq		zo'riqqan	35
19	Siq		siqqan	25
20	Ochiq		ochiqqan	11
21	Qirq		qirqqan	10
22	Suq		suqqan	10
23	Siniq		siniqqan	6
24	Yiq		yiqqan	5
25	Hayiq		hayiqqan	4
26	Intiq		intiqqan	3
27	Qalq		qalqqan	3
28	Orziq		orziqqan	2
29	Unniq		unniqqan	2
30	bo'g'riq		bo'g'riqqan	1
31	Tutaq		tutaqqan	1
32	biq		biqqan	0
33	buriq		buriqqan	0
34	bo'liq		bo'liqqan	0
35	bo'riq		bo'riqqan	0
36	hapriq		hapriqqan	0
37	hovliq		hovliqqan	0

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

38	joniq	joniqqan	0
39	pishiq	pishiqqan	0
40	so‘q	so‘qqan	0
41	tiniq	tiniqqan	0
42	tutoq	tutoqqan	0
43	to‘liq	to‘liqqan	0
44	uzoq	uzoqqan	0
45	uloq	uloqqan	0
46	xomiq	xomiqqan	0
47	yutoq	yutoqqan	0

-qan shakli birikishda *chiqmoq* fe‘li keskin ustunlikka ega. *Chiqmoq* fe‘li 47384 o‘rinda -qan shakli bilan qo‘llangan. Bu -qan shaklining korpus matnlaridagi umumiy miqdorining 90 foizini tashkil qiladi. Ustunlikning asosiy sababi *chiqmoq* fe‘lining ma‘nolari ko‘p ekanligi va ko‘makchi fe‘l sifatida ham qo‘llanila olishida ko‘rinadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *chiqmoq* fe‘lining 47 ta ma‘nosi keltirilgan [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, IVжилд, 2008: 498-501]. Birikish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, *biqmoq*, *burmoq*, *bo‘riqmoq*, *bo‘liqmoq*, *joniqmoq*, *pishiqmoq*, *so‘qmoq*, *tiniqmoq*, *to‘liqmoq*, *uzoqmoq*, *uloqmoq*, *xomiqmoq*, *yutoqmoq*, *hapriqmoq*, *hovliqmoq* fe‘llari korpus matnlarida biror o‘rinda -qan shakli bilan uchramaydi. Bizningcha, buning sababi *biqmoq*, *joniqmoq*, *so‘qmoq*, *uzoqmoq* fe‘llarining hozirgi o‘zbek adabiy tilida deyarli ishlatilmasligi, *burmoq*, *bo‘riqmoq*, *bo‘liqmoq*, *pishiqmoq*, *tiniqmoq*, *to‘liqmoq*, *uloqmoq*, *xomiqmoq*, *yutoqmoq*, *hapriqmoq*, *hovliqmoq* fe‘llarining esa asosan so‘zlashuv uslubida qo‘llanilishi bilan bog‘liq.

-kan va -qan shakllarining ta‘limiy korpus matnidagi fe‘llarga birikishini o‘rganganimizda bu qo‘shimchalar ayrim fe‘llarga hozir amalda bo‘lgan lotin yozuvidagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalariga”ga nomuvofiq holda qo‘shilganligini kuzatdik. Bu qoidalarining 37-bandiga ko‘ra k undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shimcha -kan holida, q undoshi bilan tugagan so‘zlarga -qan holida qo‘shilishi, qolgan barcha hollarda so‘z qanday tovush bilan tugashidan va -gan qo‘shimchasining bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat‘i nazar g yozilishi belgilangan. Bunga ko‘ra *tegmoq*, *tugmoq*, *sig‘moq*, *tug‘moq*, *yog‘moq*, *yig‘moq* kabi fe‘llarga qo‘shimcha -gan holida qo‘shilishi va *teggan*, *tuggan*, *sig‘gan*, *tug‘gan*, *yog‘gan*, *yig‘gan* tarzida yozilishi kerak. Biroq korpus matnlarida ushbu fe‘llar lotin yozuvida amaldagi imlo qoidalariga emas, balki kirill yozuvi imlo qoidalarining 34-bandiga [Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари, 1955: 23-24] muvofiq holda yozilgan o‘rinlar ko‘p uchraydi. *tegmoq*, *tugmoq*, *sig‘moq*, *tug‘moq*, *yog‘moq*, *yig‘moq* fe‘llarining lotin yozuvida -gan shakli bilan ta‘limiy korpus matnlarida amaldagi imlo qoidalariga muvofiq/nomuvofiq holda uchrash miqdorlari 3-jadvalda aks etgan.

3-jadval

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

T/r	Imloga muvofiq holda	Miqdori	Imloga nomuvofiq holda	Miqdori
1.	teggan	160	tekkan	1100
2.	tuggan	14	tukkan	41
3.	sig‘gan	14	siqqan	25
4.	tug‘gan	62	tuqqan	204
5.	yig‘gan	425	yiqqan	420
6.	yog‘gan	630	yoqqan	350
	Jami	1305		2140

Jadvaldan ko‘rinadiki, keltirilgan 6 fe‘lning -gan zamon shakli bilan ta‘limiy korpusdagi qo‘llanilishlarida amaldagi imlo qoidalariga ko‘ra noto‘g‘ri yozilish holatlari ko‘proq uchraydi (62%). Bizningcha, bu holatning sababi, avvalo, kirill yozuvidagi matnlarni dastur yordamida avtomatik lotin yozuviga o‘girish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikinchidan, bu fe‘llarning imlosi talaffuziga mos emasligi ham yozilishida xatoni yuzaga keltirgan.

-gan (-kan, -qan) shaklining annotatsiyasida uning ikki vazifasiga e‘tibor qaratish kerak:

1. Sof fe‘l tarkibida o‘tgan zamoni anglatadi.
2. O‘tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi.

Matn tarkibida -gan shaklining qaysi vazifani bajarayotgani u qo‘shilgan so‘zning sintaktik xususiyatlariga bog‘liq, ya‘ni fe‘l kesim tarkibida bu shakl birinchi vazifani bajarsa, -gan shaklidagi so‘z atributiv vazifa bajarganda o‘tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi.

Fe‘lning tur kategoriyasini maxsus o‘rgangan B. Bahriddinova sof fe‘l uchun “harakat”, “boshqaruvchilik” ma‘nolari, sifatdosh uchun esa “belgi”, “tobe uzvlik” ma‘nolari ustuvor ekanligini qayd etadi [Бахриддинова, 2002: 100]. Olimaning fikricha, -gan sifatdoshi kesimdan anglashilgan harakatdan ilgari sodir bo‘luvchi harakatni predmetning atributiv belgisi sifatida ifodalaydi [Бахриддинова, 2002: 102]. Bizningcha, bu grammatik shaklning ikki vazifasini “belgi” va “harakat” ma‘nolari asosida farqlash dasturiy tomondan murakkab bo‘lib, “boshqaruvchilik” va “tobe uzvlik” ma‘nolariga tayanish nisbatan yaxshi natija beradi. Biroq bu ma‘nolar tahlili sintaktik analizator yordamida aniqlanadi. Morfologik analizator yordamida esa -gan shaklidan so‘ng shaxs-son qo‘shimchasining kelish holatini o‘tgan zamondagi sof fe‘l sifatida baholash mumkin: “F+N+BB+ Z1(3)+Sh bo‘lsa, u holda Z1(3)=sof fe‘lning o‘tgan zamon shakli”. Bu model asosida *yozganman*, *yozgansan*, *yozganmiz*, *yozgansiz* tipidagi fe‘l shakllarining o‘tgan zamondagi sof fe‘l ekanligini farqlash mumkin. Lekin uchinchi shaxsda maxsus shaxs-son qo‘shimchasi ishlatilmasligi, -gan shakli zamon bilan birgalikda shaxs-son ma‘nosini ham ifodalashi uni sifatdosh bilan shaklan bir xil qilib qo‘yadi. Masalan: *Bola yozgan. Yozgan bola*. Bu holatda so‘zning sintaktik vazifasi, ya‘ni

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

aniqlovchi yoki kesim ekanligi, “boshqaruvchilik” yoki “tobe uzvlik” ma’nosiga ega ekanligi farqlovchi omil hisoblanadi.

-gan shaklining sifatdosh vazifasida kelishida “-gan+ot” qolipi etakchilik qilsa-da, dastur bu orqali barcha qo‘llanishlarni qamrab ololmaydi. Chunki atributiv vazifadagi so‘z ba’zan otlashib otga xos sintaktik vazifalarni bajarishi, shuningdek, kelishik, egalik, ko‘plik, qarashlilik kabi ma’nolarni beruvchi qo‘shimchalarni qabul qilishi mumkin: “F+N+BB+Z1(3)+ko‘plik/egalik/kelishik/qarashlilik shakli bo‘lsa, u holda Z1(3)=o‘tgan zamon sifatdoshi”

Demak, annotatsiyalash jarayonida -gan shaklining har ikki vazifasi uchun ham “o‘tgan zamonga oid”lik grammatik ma’nosini birlashtirish mumkin. Uning sifatdosh tarkibida yoki sof fe‘l tarkibida o‘tgan zamonni anglatayotganligi morfologik analizator doirasida -gan shaklidan so‘ng qo‘shilgan grammatik vosita yordamida farqlangani holda, -gan shaklidan so‘ng grammatik vosita mavjud bo‘lmagan holatlarda esa sintaktik analizator yordamiga tayaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar: O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 333 b.

2. Hamroyeva Sh., Xoliyoyorov O‘., Abdualimova G. O‘zbek tilining fe‘l shakllari lug‘ati. (“kiymoq” fe‘li misolida) I jild. – Termiz Termiz: Термиз давлат университети нашр-матбаа, 2021. – 492 б.

3. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2019. – 164 б.

4. Бахриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими. Тур категорияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Қарши, 2002. – 137 б.

5. Мусулмонова Н. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 112 б.

6. Мухамедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006. – 140 б.

7. Пўлатов А.Қ., Мўминова Т.П., Пўлатова И.О. Дунёвий ўзбек тили. Ўзбек тилида феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилидаги кўринишлари. – Тошкент: Университет, 2003. – 404 б.

8. Сулаймонов А. Ўтган замон феъли//Феъл замонлари. – Тошкент: Фан, 1962. – 165 б.

9. Фуломов А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – 92 б.

10. Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 192 б.

O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.
12. Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. – Тошкент: Фан, 1955. – 34 б.
13. <https://lex.uz/docs/-1625271>
14. <https://uzschoolcorpara.uz>

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

MUNDARIJA

TABRIK SO‘ZI

Sirojiddinov Sh. Amaliy filologiya sohasi istiqboli va ta’limi masalalari ...	5
1. SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI VA MENEJMENTI	
Mengliyev B. O‘zbekistonda o‘zbek tilining tabiiy holati.....	8
Zaripov R. Til siyosati va menejmenti komponentlari.....	11
Hakimov M., Po‘latova G. Davlat tili va me‘yoriy hujjatlar.....	15
Tojiyeva G., Niyazov S. O‘zbek zamonaviy tilshunosligida adabiy til talqini davr talabi sifatida.....	21
Norova S., Zaripov R. Davlat tilining qonun hujjatlarida qo‘llanilishi.....	26
Safarova G., Zaripov R. Jahon mamlakatlarida til siyosati va til boshqaruvi.....	31
2. SHO‘BA. ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA VA MILLIY TERMINOLOGIYA MUAMMOLARI	
Islomov I. O‘zbek tili milliy korpusi uchun geografik terminlar tizimi tasnifini amalga oshirishga doir.....	35
Bobojonov Sh. O‘zbek tili fe‘llarining lisoniy ma’nosi va uning nutqiy voqelanish vosita hamda omillari.....	37
Mahmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida individual uslub bilan bog‘liq o‘zlashmalar.....	46
Turdimurodov S. Frazeologik evfemik birliklar va ularning ayrim xususiyatlari.....	53
Abdurashidova S. O‘zbek va ingliz tillarida yangi so‘z hosil bo‘lishi yo‘llari.....	60
Axmedova D. Semantik kengaytmada bir sememali va ko‘p sememali leksemalarning ifodalanishi.....	63
Yuldashev F. “Ma’naviyat” va “mafkura” leksemalarining integral va differensial xususiyatlari.....	66
Shukurov O. Yangi davr o‘zlashmalarining semantik taraqqiyoti xususida..	72
Turdaliyeva D. Paremiyalarda modallik munosabatlarning ifodalanishi....	78
Islomova Sh. Qashqadaryo qipchoq shevasiga oid frazeologizmlar.....	81
Bobojonova Sh. O‘zbek tilidagi “axloq” umumiy semali atov birliklarining ensiklopedik lug‘atda berilishi.....	86
Shirinova M. Kino tilidagi “vasvasagin” va “sevginator” yasalmalari xususida.....	89
Karimova X. O‘zbek tilida “jasorat” umumiy semali atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari.....	93
Islomova Sh. Qashqadaryo qipchoq shevasi frazeologizmlari antonimiyasi..	96
Sobirov M. O‘quv izohli lug‘atlar masalasiga doir.....	100
Tursunova D. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ba’zi folklorizmlarning funksional-semantik va uslubiy xususiyatlari.....	103

O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Eshboyeva Sh. Bandixon tumani shevasiga oid dialektal soʻzlar toʻgʻrisida.	108
3. SHOʻBA. KOMPYUTER VA KORPUS LINGVISTIKASINING AMALIY MASALALARI	
Hamroyeva Sh. Lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalarning ot soʻz turkumidagi qurshovi va lingvistik modellashtirish xususida.....	113
Gulyamova Sh. Semantik analizator uchun polifunksional soʻzlarni farqlashning lingvistik omillari.....	117
Abdullayeva O. Oʻzbek tili korpusida matnlarni sintaktik annotatsiyalash masalasi.....	122
Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar.....	127
Xidirov O. Soʻz birikmalarini lisoniy-sintaktik qoliplar asosida sintaktik teglash.....	136
Elova D. Tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari.....	140
Tangriyev V. Types of parallel corpora according to application.....	149
Xusainova Z. NLP: tokenizatsiya, stemming, lemmatizatsiya va nutq qismlarini teglash.....	154
Axmedova X. Chastotali usul yordamida omonimiyani aniqlash.....	164
Xonnazarov E. -Gan/-kan/-qan zamon shaklini korpusda annotatsiyalash...	171
Karimov S., Tursunov M., Xolmuxamedov B. Oʻzbek tili milliy korpusi uchun matnlarni formatlash dasturlari.....	179
Salomov A. Mashina tarjimasi uchun oʻzbek-ingliz tillari sinonimlari bazasini yaratish prinsiplari.....	185
Suyunova M. Grammatik omonimlarni modellashtirish xususida.....	189
Samatboyeva M. Mashinaviy oʻqitish yordamida matnlarda ner obyektlarni tanib olish metodlari.....	195
Mahmudjonova G. Oʻzbek tilida lemmatizatsiya hodisasi. lemmatizatsiya va stemmingni farqlash.....	200
Nizomova Z. Terminologik tezauruslar va ularning ahamiyati.....	203
Raxmonova M. Kompyuter lingvistikasi rivoji va sintaktik analizator yaratish masalasi.....	208
Xolmonova I. Ikki tilli parallel korpusning chet tilini oʻrganishdagi ahamiyati.....	212
Uzoqova M. Oʻzbekcha sinonimayzer dasturini takomillashtirishda qisman maʼnoli sinonimlarni aniqlash metodi.....	215
4. SHOʻBA. LINGVISTIK EKSPERTIZA MASALALARI	
Toʻrayeva D. Ogʻzaki nutqning lingvistik ekspertizasi.....	220
Musulmonova K. Inson yozma nutqida identifikatsion alomatlarining yuzaga kelishi.....	224
Suvonov Z. Badiiy matnni lingvistik ekspertiza qilishning metodologik muammosi.....	229
Xotamova G. Shaxsiy yozishmalarda oʻsmir qizlar yozma nutqining topografik xususiyatlari.....	234

O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Soliyeva N. Lingvistik ekspertizada “da’vat” tushunchasi tahlili.....	240
Najmiddinova N. Haqorat tushunchasi va uning lingvistik ekspertizasi.....	243
Suvonov Z. Badiiy matn lingvistik ekspertizasining metodologik asoslari..	246
Umrzaqova G. Muammoli yozishmalarda tahdidga doir so‘zlarning lingvistik ekspertizasi.....	252
Nosirova Sh. Lingvistik ekspertizada shaxsni obro‘sizlantirish tushunchasi	257
Sultonova E. Turli ziddiyatli matnlarni lingvistik ekspertiza qilish asoslari	261

5. SHO‘BA. AMALIY FILOLOGIYA MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

Zaripov R. Amaliy filologiya yo‘nalishi talabalarining tanishuv amaliyotini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.....	263
Bakiyeva X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqi va tafakkurini o‘stirish — til ta‘limining dolzarb muammosi sifatida.....	268
G‘ulomova X. Grammatik mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish.....	272
Jo‘raeva N. Disfemizm tushunchasi va uning pragmatik xususiyatlari.....	276
Xo‘jayev N. Abdulla Oripov she‘riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari.....	281
Khidirova G. Cultural differences of words ‘gratitude’ and ‘apology’ in english and their counterparts in uzbek.....	286
Juraev N. Teaching composition writing.....	289
Po‘latova S. O‘zbekiston davlat madhiyasida “g‘urur” konseptining ifodalanishi.....	293
Qudratova M. Asqar Mahkam she‘riyatida vatan mavzusi.....	296
Rajabova M., Nematullayeva M. Nodira g‘azallarining nashrlariga doir mulohazalar.....	300
Boltayeva N. Tabassum – noverbal aloqa vositasi.....	304
Barotova M. Muloqotda barmoq ishtirokidagi o‘zbekona paralingvistik vositalarning ahamiyati.....	308
Nurmurotov I. Dastlabki punktuatsion belgilarning shakllanishi.....	313
Abdumannatova N. “Hotamnoma” asarining lingvofolkloristik tahlili.....	317
Egamberdiyev F. Holat bildiruvchi sifatlarning o‘zbek tilida o‘rganilishi..	320
Allanazarova F. O‘zbek hikoyachiligida yangilik va an‘ana.....	325
Yo‘ldosheva D. Til birligida taqlid so‘zlar.....	329
Turopova H. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollari lingvistik tadqiqi masalalarining o‘rganilishi.....	332
Худайбердиева И. Сложности в различии падежей русского и узбекского языков.....	338
Ibrohimova M. Harakat nomi va infinitivning qiyosiy tahlili.....	344

